

# TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'RNI

*Maxfuza Xodjayeva*

*O'zbekiston davlat san'at ma madaniyat instituti "Vokal" kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya.** Maqolada umumta'lismaktablari musiqa madaniyati darslarini o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari, imkoniyatlari musiqa darslarining o'ziga xos tuzilish xususiyatlari va bu jarayonda pedagogning roli bilan bog'liq ravishgi jarayonlar tahlil qilingan hamda metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Umumta'lismaktablari, boshlang'ich sinf, musiqa madaniyati, texnologiya, ta'lism, estetik tarbiya, samaradorlik.

## KIRISH

Milliy uyg'onish davri deb tan olinayotgan bugungi kunimiz mustaqil O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab berdi. Qisqa davr ichida mamlakatimiz davlat va jamiyat qurulishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustuvor yo'naliishlari belgilab berildi. "Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq deb yozadi muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy me'rosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muxum vazifa bo'lib qoldi. O'zlikni anglash, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzbek, tarbiya jarayoni deb hisoblaymiz" <sup>1</sup>

Qisqa davr ichida o'zbek xalqi mamlakatimizning jahon hamjamiatida munosib o'rin egallashga asos bo'luvchi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Xususan, horijiy davlatlar bilan do'stona hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishib kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek – "Qaysi sohani olmaylik biz yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib, biron bir o'zgarishga erisha olmaymiz." - deya ta'kidlagan edilar. Bugungi kunda yoh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda musiqaning imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu sababli xalqimizning o'tmish, ma'naviy me'rosini o'rganish jismoniy va ma'naviy yetuk yangi avlodni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy qadryatlarimizni, an'analarimizni sevish va qadrlash tuyg'usini kamol toptirish bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim tizimining fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuviga erishuvini ta'minlashni bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida kun tartibiga qo'yilishi bu borada muayyan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ta'lim mazmunini tubdan yangilash, uni ilg'or

1. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sagasida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston», 1997, 137-bet



qarashlar bilan boyitishga erishish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini ta'minlash ana shunday vazifalar sirasiga kiradi. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-on, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot doimiy ravishda o'z ta'sirini o'tkazib keladi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni taqazo etadi.

Milliy dasturda ko'zda tutilgandek, zamonavaiy axborot texnologiyalari va kompyuterlar mukammalashib, o'quv jarayoniga tatbiq etib borilmoqda.

O'qituvchining pedagogik mahorati – o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talaba - yoshlarning dunyoqarashni shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish asosiy vazifalardan hisoblaniladi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.<sup>2</sup> Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda pedagoglar faoliyatida samaradorlikka erishish tushunchasi, uning mohiyati va mazmuniga oid fudamental tadqiqotlar G.Riman, E.Praut, G.Katuar tomonida o'r ganilgan. Ular asosan sohaning mantiqiy-psixologik va funksional jixatlarini tahlil etishgan.

Mutaqil hamdo'stlik davlatlarida V.M.Belyayev, V.A.Ushinskiy, I.V.Sposobin, B.Kabalevskiyalar tomonidan musiqiy tafakkurning falsafiy-pedagogik muammolari tahlil qilingan.

Keyingi yillarda milliy musiqa madaniyati va uning yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari, aqliy qobiliyatiga oid bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bo'lganligini alohida e'tirof etish mumkin. Jumladan, yoshlarning musiqiy tafakkurni shakllantirish masalalarining umumnazariy va metodologik hamda tarixiy jixatdan yoritishda I.R.Rajabov, I.Mamirov, R.G'ofurov, D.Djamalova, D.Soipova, O.Vasilchenko kabi pedagog olimlarning ilmiy-nazariy g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shunday ekan, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

<sup>2</sup> Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiysi. – T; XTV, 1995 yil.



O'quvchi shaxsiga doimo ijobjiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachi hisoblanadi. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi talab etiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga puxta talim berish ishida o'quv-tarbiyaning yanada samaradorligini taminlash maqsadida cholg'u ijrochiligi malakalarini egallash uslubiyotining nazariyasi va unga xos bo'lgan o'rgatish "texnologiyasini" rivojlanтирish muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarining quyi sinflarida musiqa darsini tashkil etish jarayoniga yangi o'zgarishlar kiritishni zamonning o'zi talab etmoqda. Ayniqsa, maktabda musiqa madaniyati darsini tashkil etishda innovatsion yondashuvni joriy etish muammosining mavjudligi bir qator vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Bolalarning bo'sh vaqtлari qanday va qay tartibda o'tayotgani, ular internet tarmog'idan qay maqsadlarda foydalanayotgani ustozlarni ham qiziqtirishi kerak. Musiqa o'qituvchilar bugungi global rivojlanish asrida bolalar uchun ularni tashqi nojo'ya ta'sirlardan himoya qiladigan usullarni ishlab chiqishi zarur. Har bir dars faqatgina musiqaning o'zi bilangina bog'lanib qolmay, innovatsion yangiliklarga hamohang bo'lishi maqsadga muvofiq. Boshqacha qilib aytganda, biz bolani "ommaviy madaniyat" ta'siridan qutqarishga harakat qilishimiz kerak.

Musiqiy ta'lim har bir inson hayotida muhim o'rinn tutadi. Badiiy tasvir, ijodkorlik va ilhom baxsh etgan musiqa o'ziga xos tushunchadir. U bolalarda noan'anaviy fikrlash, ijodkorlik hissi va dunyonи aks ettirish qobiliyati, mustaqil hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Musiqa darslarida innovatsion dasturni qo'llash uchun bir qancha omillarni asos qilib olish mumkin. Bu, asosan, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayonida asosiy fikrlarni aniqlash imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich mакtab yoshidagi bolalarni tarbiyalash bugungi kunda ko'p mezonlarga muvofiq yangilanishi zarur.

Musiqa - bu aqliy qobiliyatlarni faollashtirish vositasidir. Musiqani idrok etish aqliy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq, ya'ni, diqqat, kuzatish, tezkor aql talab qiladi. O'quvchilar tovushni tinglaydilar, o'xshash va turli xil tovushlarni taqqoslaydilar, ularning ekspressiv ma'nosi bilan tanishadilar, badiiy tasvirlarning xarakterli semantik xususiyatlariga e'tibor beradilar, asarning tuzilishini tushunishga o'rganadilar. Estetik baholashdagi ushbu birinchi urinishlar kuchli aqliy faoliyatni talab qiladi va o'qituvchi tomonidan boshqarilib boradi.

Shuning uchun musiqa rahbari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar yoshiga mos va ularga tushunarli mazmunda musiqa asarlar go'zalligini his qilish, mazmunini tushinish, Vatanga muhabbat hissi, milliy g'ururini shakllantirish, yorqin ifoda vositalarini farqlash musiqa asarining ikki uch qismli shaklini mustaqil farqlay olish kabi layoqatini tarkib toptirmog'i zarur.

Ma'lumki uzlucksiz ta'lim tizimining birlamchi asosiy bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimi hisoblanadi. Ko'pgina mutaxassislar va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra insoniyat o'zining butun umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70% ni 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu ma'noda bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib, voyaga yetishishida maktabgacha ta'lim-tarbiyasi qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini aytishimiz mumkin.

Keyingi vaqtлarda umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini amalga oshirishda integratsiyalashgan ta'lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimidan qat'iy nazar o'quv jarayoniga qadam qo'yар ekan, musiqa o'qituvchisi pedagogik va psixologik bilimlar, yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodikalari bo'lgan zarur pedagogik bilimlarni egallagan bo'lishi shart. "Pedagog" so'zining ma'nosi qadimdan "bola yetaklovchi" degan ma'noni anglatadi. Vaqtlar o'tib, bu so'z "ta'lim-tarbiya beruvchi" degan zamonaviy so'zlar bilan almashib, kelajak avlod uchun ulkan hissa qo'shmaqda. Manbalarda musiqaning bola tarbiyasidagi o'rni muhim vosita ekanligi haqida ko'p fikrlar bildirilgan.



Integratsiya degani bu - o'qituvchining turli fanlar bo'yicha kuzatishlarini va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ularning faoliyati turli shakllarda almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashini, zerikishini va asabiylashishining oldini oladi. Musiqada vogelikka aylangan va muayyan balandlikdagi badiiy tovushlar izchilligi vositasida ifodalanadi. Musiqa ko'proq nutq intonatsiyasi bilan bog'liq. Musiqa yuzlab va minglab tinglovchilarga emotsiyaliga ta'sir qiladi. Ularning tasavvurlarini jalb qilib, his-tuyg'ularini bir yo'nalishga buradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar birinchidan bog'cha bolalarida bilim ko'nikmalari va malakalarini oson hamda qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratса, ikkinchidan musiqa rahbarining o'zi ham professional o'sishiga yordam beradi. Shu sabab musiqa mashg'ulotlarni ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashgan holda integratsiyalangan ta'limni amalgalashishda zamонавиy pedagogik axborot texnologiyalardan foydalanib borish bugungi kun talabi hisoblanadi va bu o'z navbatida musiqa rahbari oldiga dolzarb muhim vazifalarni qo'yadi. Bunday vazifalarni bajarishda ilg'or pedagoglar texnologik metodlardan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonining unumdarligini oshiradi, eng asosiysi o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va bilimga nisbatan ishtiyoq hamda qiziqish uyg'otadi. Musiqa madaniyati fami o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan integratsiyalangan musiqa darslari jarayonida qo'llashi mumkin bo'lgan ba'zi bir metodlarni keltirib o'tamiz:

Masalan, "tinglaymiz va tahlil qilamiz" metodi, "notali o'yinlar", "ovozdan top" metodi, "tarmoqlar", "intervyu" metodi, "multimedia", "texnologik metodlar" qo'llanilshi maqsadga muvofiq.

Multimedia texnologiyasi uchun o'yin g'oyasi va vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan, "ovozidan top" didaktik o'yinini keltirib o'tish mumkin. O'yin mavzusi "xalq cholg'ularining nomlari va turlarini multimedia texnologiyasi orqali ovozini eshitish va tasvirini ko'rib aytish" usuli. O'yin maqsadi: bu o'yinda integratsiyalangan musiqa mashg'ulotining asosini tashkil etuvchi musiqa san'atining turli sohalarini qamrab olga jihatlari orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va nutqi, musiqa savodi, xotirasi va madaniyatini shakllantiradi. O'yinning borishi musiqa o'qituvchisi musiqa cholg'ularining turlari asosida multimedia texnologiyasi orqali texnik vositalarida o'quvchilarga qo'yib beradi. Dars dasturiga joylashtirilgan har bir cholg'ular musiqa o'qituvchisi tomonidan birma-bir tushuntirib o'tiladi. Shundan so'ng o'quvchilar musiqa cholg'ulardan yangrayotgan ohang orqali ularning qaysi biri cholg'u sozi ekanligini aytadilar. Eng ko'p javob topgan bola g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni o'tkazish bolalarga musiqa cholg'ulari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari ularning so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi. Albatta bu o'yinda o'quvchilarning savollariga aniq javob berishi musiqa o'qituvchisining musiqa darslari davomida berib borgan saboqlarga bog'liq.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini samaradorligini oshirish uchun umumlashgan multimedia mashg'ulotlardan unumli foydalanish o'quvchilarning musiqiy savodxonligini o'stiribgina qolmay, balki, musiqa o'qituvchilarining kasbiy layoqtalarini ham rivojlantiradi. Qolaversa, bugungi umumta'lim maktablarida o'tilayotgan va o'rganilayotgan musiqa ta'limini o'quvchilarga, ularni psixologiyasidan kelib chiqqan holda o'rgatishlik ayniqsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ta'lim jarayonida bo'ladigan kichik muammolar jumladan o'quvchilarning qo'shiq kuylayotganidagi so'zlarni xato talaffuzi, ritmlarni his etmasligi, umuman musiqaga befarqlik kabilarni chetlab o'tmasdan ularga e'tibor qaratgan to'g'ri yechim topa olish bu albatta pedagogdan yuqori salohiyatni va kasbiy kompetentlikni talab etadi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sagasida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston», 1997 ,137-bet
2. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008yil.
3. Umumta'lism maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiysi. – T; XTV, 1995 yil.
4. N.Xasanova.Umumta'lism maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiysi. – Toshkent, XTV, 1995 yil.
5. 5.:<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
6. Namozova D.T., Nosirov D.T. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim metodikasi" Qo'q'on: 2006 y.
7. Sharipova G.«Maktabgacha ta'lim muassasalarida Musiqa o'qitish metodikasi». «Chulpon» T.: 2007.

